

O'zbekiston Respublikasi
Sog'liqni saqlash vazirining
2025 yil "23" iyundagi
180-sonli buyrug'iga
ilova

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN KARDIOLOGIYA ILMIY-AMALIY
TIBBIYOT MARKAZI

«INFEKSION ENDOKARDIT» NOZOLOGIYASI BO'YICHA
MILLIY KLINIK PROTOKOLLARI

TOSHKENT – 2025



**«KELISHILGAN»
RIKIATM direktori
X.G'. Fozilov**

" " _____ 2025 yil

«INFEKSION ENDOKARDIT» NOZOLOGIYASI BO‘YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOLLARI

TOSHKENT – 2025

**«INFEKSION ENDOKARDIT» NOZOLOGIYASINI
TASHXISLASH VA DAVOLASH BO‘YICHA MILLIY
KLINIK PROTOKOLLARI**

TOSHKENT – 2025

1. Kirish qismi

1.1 Xalqaro kasalliklar klassifikatori – XKK (MKB)-10 kodi (lar):

Kod	Nomlanishi
I33	O‘tkir va surunkali endokardit
I33.0	O‘tkir va surunkali infeksiyon endokardit
I33.9	O‘tkir endokardit aniqlanmagan
I38	Endokardit, yurak klapanlari kasalligi aniqlanmagan
I38.0	Endokardit, yurak klapanlari patologiyasi aniqlanmagan
I39	Endokardit va yurak klapanlari zararlanishi boshqa rubrikalarda tasniflangan kasalliklar bilan
I39.0	Endokardit boshqa rubrikalarda tasniflangan kasalliklarda
I39.1	Mitral klapan zararlanishi boshqa rubrikalarda tasniflangan kasalliklarda
I39.2	Aorta klapani zararlanishi boshqa rubrikalarda tasniflangan kasalliklarda
I39.3	Trikuspidal klapan zararlanishi boshqa rubrikalarda tasniflangan kasalliklarda
I39.4	O‘pka arteriyasi klapani zararlanishi boshqa rubrikalarda tasniflangan kasalliklarda
B37.6	Kandidoz endokarditi

Xalqaro kasalliklar klassifikatori – XKK(MKB) 11:

BA80	O‘tkir endokardit
BA80.0	O‘tkir infeksiyon endokardit
BA80.1	O‘tkir endokardit boshqa bo‘limlarda tasniflangan kasalliklarda
BA80.9	O‘tkir endokardit aniqlanmagan
BA81	Surunkali endokardit
BA81.0	Surunkali infeksiyon endokardit
BA81.1	Surunkali endokardit boshqa bo‘limlarda tasniflangan kasalliklarda
BA81.9	Surunkali endokardit aniqlanmagan
BA82	Endokardit, yurak klapanlari kasalligi aniqlanmagan
BA82.0	Endokardit, yurak klapanlari kasalligi aniqlanmagan
BA83	Endokardit va yurak klapanlari zararlanishi boshqa bo‘limlarda tasniflangan kasalliklarda
BA83.0	Endokardit boshqa bo‘limlarda tasniflangan kasalliklarda
BA83.1	Mitral klapan zararlanishi boshqa bo‘limlarda tasniflangan kasalliklarda
BA83.2	Aorta klapani zararlanishi boshqa bo‘limlarda tasniflangan kasalliklarda
BA83.3	Trikuspidal klapan zararlanishi boshqa bo‘limlarda tasniflangan kasalliklarda
BA83.4	O‘pka arteriyasining klapani zararlanishi boshqa bo‘limlarda tasniflangan kasalliklarda
AB75.6	Kandidoz endokarditi

Protokolni ishlab chiqish va qayta ko‘rib chiqish sanasi: 2025-yil, qayta ko‘rib chiqish sanasi 2029-yil yoki yangi asosiy dalillar mavjud bo‘lganda. Taqdim etilgan tavsiyalarga kiritilgan barcha o‘zgartirishlar tegishli hujjatlarda e‘lon qilinadi.

**Ushbu klinik protokol va standartni ishlab chiqish uchun mas'ul muassasa:
Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi
(RIKIATM) hisoblanadi.**

**Kardiologiya ishchi guruhining quyidagi a'zolari klinik protokol va standartni
ishlab chiqishga hissa qo'shdilar:**

Jarayonni tashkil etish borasida kardiologiya yo'nalishidagi ishchi guruh a'zolari:

1. **Fozilov X.G.** – RIKIATM direktori, t.f.n. SSV bosh kardiologi.
2. **Nizamov U.I.** – RIKIATM direktorining davolash ishlari bo'yicha o'rinbosari, PhD, SSV konsultant kardiologi.
3. **Karimov A.M.** – RIKIATM direktorining filiallar bo'yicha o'rinbosari, PhD, SSV konsultant kardiologi.
4. **Kurbanova R.A.** – RIKIATM bosh shifokori o'rinbosari.
5. **Tolipova Yu.Sh.** – Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini oshirish markazining intervension kardiologiya va aritmologiya kursi bilan kardiologiya va gerontologiya kafedrasida dotsenti, t.f.d., SSV bosh gerontologi.
6. **Axmatov Ya.R.** – RIKIATM Karshi filiali direktori, PhD.

Mualliflar ro'yxati:

1. **Trigulova R.X.** – tibbiyot fanlari doktori, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi (RIKIATM) yurak ishemik kasalligi bo'limining bosh ilmiy hodimi.
2. **Bekmetova F.M.** - tibbiyot fanlari doktori, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi (RIKIATM) funksional diagnostika bo'limi rahbari.
3. **Abdullaeva S.Ya.** – tibbiyot fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi (RIKIATM) o'tkir miokard infarkti laboratoriyasi katta ilmiy xodimi.
4. **Yakubbekov N.T.** - tibbiyot fanlari nomzodi, Respublika sport tibbiyoti ilmiy amaliy markazi. Davolash ishlari buyicha direktor muovini.

Taqrizchilar:

E.U.Asimbekova – Rossiya Federatsiyasi Sog'liqni saqlash vazirligining Bakulev nomidagi yurak-qon tomir jarrohligi ilmiy-tibbiy tekshirish markazi klinik-diagnostika bo'limi yetakchi ilmiy xodimi, tibbiyot fanlari doktori.

A.X.Abdullaev – O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining Respublika ixtisoslashtirilgan terapiya va tibbiy rehabilitatsiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi rehabilitatsiya laboratoriyasi mudiri, tibbiyot fanlari doktori.

Klinik protokol oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, O'zbekiston Kardiologlar assotsiatsiyasi a'zolari, Sog'liqni saqlash tashkilotchilari (RIKIATM DM kollektivi va ularning o'rinbosarlari) ishtirokida ishchi guruhning 1 yil 2023-noyabrdagi onlayn formatdagi yakuniy yig'ilishida norasmiy konsensusga erishish orqali muhokama qilindi va tasdiqlash uchun tavsiya etildi.

Ishchi gurux raxbari - RIKIATM direktori, t.f.n. SSV bosh kardiologi.

Klinik protokol Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Ilmiy Kengashi tomonidan _____ bayonnomada ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan.

Ilmiy Kengash raisi – tibbiyot fanlari nomzodi, X. G. Fozilov.

Texnik ekspert baholash va tahrirlash:

1. Nizamov U. I. - RIKIATM direktorining davolash ishlari bo'yicha o'rinbosari, PhD, SSV konsultant kardiologi.
2. Karimov A. M. - RIKIATM direktorining filiallar bo'yicha o'rinbosari, PhD, SSV konsultant kardiologi.

Mazkur klinik protokol va standartlar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazir o'rinbosari Basitxanova E.I, Tibbiy sug'urta boshqarmasi boshlig'i Sh. Almardanov, klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo'limi boshlig'i Sh.R. Nurimova boshchiligida, Klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo'limi bosh mutaxassisi G.Djumayeva, yetakchi mutaxassisi N.Raximova tomonidan tashkiliy va uslubiy ko'magi asosida ishlab chiqilgan.

1.6. Bayonnoma/Protokolda foydalanilgan qisqartmalar:

OITS	orttirilgan immunotanqislik sindromi	
ESC	Yevropa kardiologlar jamiyati	
IE	infeksion endokardit	
NICE	Salomatlik va yordamni yaxshilash Milliy instituti	
EACTS	Yevropa kardiotorakal jarrohlik assotsiatsiyasi	
EANM	Yevropa yadroli tibbiyot assotsiatsiyasi	
TYuN	tug'ma yurak nuqsonlari	
KoNS	koagulazonegativ stafilokokklar	
MRT	magnit-rezonans tomografiya	
MSKT	multispiral kompyuterli tomografiya	
YuE	yurak yetishmovchiligi	
EChT	eritrotsitlar cho'kish tezligi	
SRO	S-reaktiv oqsil	
ExoKG	exokardiografiya	ExoKG
TExoKG	transtorakal exokardiografiya	
QO'ExoK G	qizilo'ngach orqali exokardiografiya	
KT	kompyuterli tomografiya	
FDG	ftordezoksiglyukoza	
PET	pozitron-emission tomografiya	
BFEKT	bir fotonli emission kompyuterli tomografiya	
ManfO'E	flora o'sishi manfiy infeksiyon endokardit	
PZR	polimeraza zanjirli reaksiya	
MIK	minimal ingibitsiyalovchi konsentratsiya	
KPE	klapan protezi endokarditi	
NKE	nativ klapan endokarditi	
MSSA	metitsillin-sezgir stafilokokklar	
MRSA	metitsillin-turg'un stafilokokklar	
PBP	past affin bog'lovchi protein	
ATYuD	aminoglikozid-turg'unlikning yuqori darajasi	
EXB	endokarditga qarshi xalqaro birlashma	

AAPT	ambulator antibiotikli parenteral terapiya
NYHA	Nyu-York yurak assotsiatsiyasi
AV	atrioventrikulyar
UTT	ultratovush tekshiruvi
IYuM	implantatsiya qilingan yurak moslamalari
IYuMIE	implantatsiya qilingan yurak moslamalarining infeksiyon endokarditi
ShTB	shoshilinch terapiya bo‘limi
OIV	odam immunodefitsiti virusi
IKD	implantatsiya qilingan kardioverter-defibrillyator
NBTE	nobakterial tromboendokardit
ATQ	Amaliy tavsiyalar bo‘yicha ESC qo‘mitasi

1.7. Mazkur tashxis/nozologiya bo‘yicha protokolning foydalanuvchilari;

Umumiy amaliyot vrachlari, terapevtlar, kardiologlar, reanimatologlar, kardiojarrohlar, tibbiyot oliy o‘quv yurtlari talabalari, klinik ordinatorlar, magistrlar

1.8. Mazkur tashxis/nozologiya bo‘yicha bemorlarning toifasi;

Infeksiyon endokarditli bemorlar, va infeksiyon endokarditning yuqori xavfiga ega bemorlar

1.9. Dalillarga asoslangan tibbiyotning, dalillari darajasi shkalasi.

Ushbu bayonnomada bugungi kunda mavjud klinik dalillar, muvofiq amaliyot holatlari, shuningdek, ekspertlar fikrlari keltirilgan. Tavsiyalar o‘z ichiga Yevropa kardiologlari jamiyati (ESC) ning ma’lumotlarini kiritgan. Mahalliy sharoitlarga moslashtirish ishlari o‘tkazilgan. Eng yaxshi jahon tajribasiga asoslangan ma’lumotlarni kiritgan bayonnomani ishlab chiqishda asosiy talab - ushbu mavzu bo‘yicha eng yaxshi materiallarni qo‘llashdan, shuningdek, tavsiyalarni shakllantirishda ilmiy ma’lumotlarni qat’iy tanlash uslubidan foydalanishdan iborat bo‘ldi.

Mundarija

« <u>INFEKSION ENDOKARDIT» NOZOLOGIYA SINI TASHXISLASH VA DAVOLASH BO'YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOLLARI</u>	4
« <u>O' INFEKSION ENDOKARDIT» NOZOLOGIYA SIDA TIBBIY ARALASHUVLAR BO'YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOLLARI</u>	83
« <u>INFEKSION ENDOKARDIT» NOZOLOGIYA SI TIBBIY PROFILAKTIKA YO KI REABILITATSIYA SI BO'YICHA MILLIY KLINIK PROTOKOLLARI</u>	85

1-jadval. Yevropa kardiologlari jamiyati tavsiyalarining baholash sinflari shkalasi

YeKJ ning tavsiyalari sinfi	Ta'rifi	Taklif qilinadigan shakl
I	Diagnostik muolaja, aralashuv/davolash samarali va foydali deb isbotlangan yoki umumqabul qilingan deb hisoblanadi	Tavsiya qilingan/ko'rsatilgan
II	Diagnostik muolaja, aralashuv/davolashning samaradorligi/foydasi to'g'risida qarama-qarshi ma'lumotlar va/yoki fikrlar	Qo'llash maqsadga muvofiq
IIa	Ma'lumotlar/fikrlarning ko'pchiligi diagnostik muolaja, aralashuv, davolashning samaradorligi/foydasi afzalligini ko'rsatadi	Qo'llash maqsadga muvofiq
IIb	Diagnostik muolaja, aralashuv, davolashning samaradorligi/foydasi ishonchliligi kamroq deb aniqlangan	Qo'llash mumkin
III	Diagnostik muolaja, aralashuv, davolashning befoydaligi/besamaraligi to'g'risida ma'lumotlar yoki yagona fikr keltirilgan, bir qator hollarda esa ular ziyon yetkazishi mumkin.	Qo'llash tavsiya etilmaydi

2-jadval. Yevropa kardiologlari jamiyatining dalillar ishonchliligi darajasini baholash shkalasi

Dalillarning ishonchliligi darajasi	
A	Ko'p sonli randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlar yoki meta-tahlillar ma'lumotlari
B	Ma'lumotlar bitta randomizatsiyalangan klinik tadqiqot yoki yirik randomizatsiyalanmagan tadqiqotlar natijalari bo'yicha olingan
C	Ekspertlarning kelishilgan fikri va/yoki kichik tadqiqotlar, retrospektiv tadqiqotlar, registrlar natijalari

2. Asosiy qism.

2.1 Kirish:

Infeksion endokardit (IE) diagnostikasi, antibakteral terapiyasi, kardiojarrohlik yo'li bilan davolashdagi katta yutuqlarga, bemorlarni yuritishning optimal strategiyalarini belgilab beruvchi kelishuv xujjatlari qabul qilinishiga qaramay, ushbu kasallik bugungi kunda, ya'ni XXI asrda ham og'ir asoratlar va noxush prognoz bilan tavsiflanadi. IE da

kasalxona ichi letallik darajasi 20% gacha [1, 2], yillik letallik 40% gacha yetadi, bu esa saraton kasalligining ba'zi turlaridan yuqoridir.

IE antibakterial profilaktikasi (ABP) choralarini ishlab chiqish va amalga oshirish XX asrning o'rtalaridan boshlangan bo'lib, u invaziv tibbiy muolajalardan oldin IE rivojlanishi xavfi bor bemorlarda klapan infeksiyasi rivojlanishining asosiy mexanizmi sifatidagi bakteriemiya ta'sirni ko'zda tutadi. Bunday bemorlarga, xususan, avval IE o'tkazgan, tug'ma va orttirilgan yurak nuqsonlari bor, sun'iy klapanlarga ega shaxslar kiradi. ABP nativ klapan IE ning birinchi epizodini hamda uning residivlarini, shuningdek, protezlangan klapan IE ni oldini olish uchun qo'llaniladi.

Qayd etmoq lozimki, nufuzli kardiologik jamiyatlarning doimo yangilanib turadigan xalqaro tavsiyalariga qaramay, IE ABP masalalari IE muammaolarining strategik jihatlaridan eng murakkab va bahslisi hisoblanadi. Buning sababi ko'p jihatdan IE nisbatan kam uchrashi va oqibatda ABP bo'yicha randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlar (RKT) ning yo'qligidir. Antibiotiklar (AB) ni profilaktik tayinlashga muhtoj, yuqori xavfga ega bemorlar toifasini ajratish, tibbiy muolajalar tavsifi, ABP rejimlari va b. munosabatida turli fikrlar bildiriladi. Bundan tashqari IE ABP ga yondoshuvlarda vaqt o'tishi bilan ko'proq darajada observatsion tadqiqotlardan olingan ilmiy ma'lumotlar yig'ilishiga ko'ra o'zgarishlar ro'y beradi. IE ni ABP to'g'risidagi qarorni qabul qilish antibiotiklarga rezistentlikni (ABR), antibakterial terapiyaning nojo'ya ta'sirlari kabi muammo jihatlarini, jumladan, anafilaktik reaksiyalarni hisobga olishni ham talab etadi.

Mualliflar jamoasi tomonidan barpo etilgan ushbu tavsiyalarda IE ABP ga zamonaviy yondashuvlar tahlil qilingan.

2.2 Umumiy ta'rifi:

Infekcion endokardit (IE) — halokatli xavfli kasallik bo'lib [3], yuqori o'lim darajasi va og'ir asoratlari bilan bog'liq. Oxirgi yillarda IE ni o'rganish bo'yicha ko'pgina yangi tadqiqotlar o'tkazilgan: jarrohlik yo'li bilan davolash bo'yicha birinchi randomizatsiyalangan tadqiqot o'tkazilgan [4]; vizualizatsiya uslublari, jumladan, yadroviy uslublar yaxshilangan [4]; avvalroq berilgan tavsiyalar o'rtasidagi nomuvofiqliklar hisobga olingan [1, 2, 4]. Qo'shimcha sifatida yaqinda birlamchi xalqa vrachlari, kardiologlar, jarrohlar, mikrobiologlar, infeksiyachilar va boshqa mutaxassislarining – «Endokardit jamoasi» ning birgalikdagi ishi zarurati qayd etilgan [4].

Bayonnomalarda dalillarga asoslangan baholash tizimi qo'llanilib, unda tavsiya kuchi va isbotlanganlik darajasi hisobga olinadi (1- va 2-jadvallar).

3) Klinik tasnifi (etiologiyasi, bosqichlari bo'yicha).

«Endokardit jamoasi»

IE — bu shunday kasallik, quyidagi sabablarga ko'ra jamoa yondashuvini talab etadi:

- IE yagona kasallik emas va uning simptomlari yurak, revmatologik, infeksiyachilarning, nevrologik va boshqa patologiyalarga kirishi mumkin, shu munosabat bilan

kardiologlar, kardiojarrohlar, infeksiyonistlar, mikrobiologlar, nevrologlar, neyrojarrohlar, TYuN bo'yicha ekspertlarning yuqori malakasi zarur.

- IE ni diagnostika qilishda va yuritishda Exokardiografiya (ExoKG), magnit-rezonans tomografiya (MRT), multispiral kompyuterli tomografiya (MSKT) va yadroli vizualizatsiya juda muhim hisoblanadi [4].
- Asoratlangan IE ning barcha hollarida (ya'ni IE yurak yetishmovchiligi (YuE), absesslar yoki embolik va nevrologik asoratlar bilan birga) jarrohlar bilan muhokama qilish zarur bo'ladi.

«Endokardit jamoasi» ning tavsifnomasi [5]

IE bor bemorni ixtisoslashtirilgan markazga «Endokardit jamoasi» tomonidan yuritishga yo'llash uchun ko'rsatmalar:

1. Asoratli IE (ya'ni YuE, absesslar yoki embolik va nevrologik asoratlar yoki TYuN mavjud IE) bor bemorlarni shoshilinch jarrohligi mavjud maxsus markazga davolanish uchun erta yuborish lozim.
2. Asoratlanmagan IE li bemorlar ixtisoslashtirilmagan markazda kuzatilishi mumkin, biroq muntazam ravishda ixtisoslashtirilgan markaz bilan bog'liqlikda «Endokardit jamoasi» ning maslahatlarini olib turishlari va zarur bo'lsa ushbu markazga tashrif buyurib turishlari kerak.

Ixtisoslashtirilgan markazning tavsifnomalari [5]

1. Shoshilinch tarzda diagnostik muolajalar, jumladan, exokardiografiya (qizilo'ngach orqali ExoKG ham shu jumladan), KT, MRT yoki yadroli vizualizatsiya o'tkazish imkoni mavjud.
2. Kasallikning erta bosqichidayoq, xususan, asoratli (YuE, absess, katta vegetatsiya, nevrologik yoki embolik asoratlar) IE holatida shoshilinch tarzda kardiojarrohlik amaliyotini o'tkazish imkoniyati bor.
3. Bir nechta mutaxassis («Endokardit jamoasi») – eng kamida kardiojarrohlar, klapanlar kasalliklari, TYuN, peysmeykerni olib tashlash bo'yicha ixtisosga ega kardiojarrohlar; kardiologlar, anesteziologlar, infeksiyonistlar, mikrobiologlar va imkoni bo'lsa exokardiografiya hamda boshqa vizualizatsiya uslublari bo'yicha mutaxassislar; nevrologlar o'z joyida bo'lishlari kerak.

«Endokardit jamoasi» ning roli [5]

1. «Endokardit jamoasi» holatlarini muhokama qilish, jarrohlik bo'yicha qarorlarni qabul qilish, keyingi kuzatuv strategiyasini belgilash uchun muntazam ravishda yig'ilib turishlari kerak.
2. «Endokardit jamoasi» standartlashgan bayonnomalarga muvofiq, zamonaviy tavsiyalarga rioya qilgan holda antibiotikli terapiyaning turini, davomiyligini va qo'llash usulini tanlaydi.
3. «Endokardit jamoasi» milliy va xalqaro registrlarda ishtirok etishi, ularning markazida o'lim darajasi va asoratlar soni to'g'risida ommaviy ma'lumot berishi, sifatni yaxshilash dasturlariga hamda bemolarni o'rgatish dasturlariga jalb qilinishi lozim.
4. Kuzatuv bemorning ambulator tashrif buyurish asosida tashkil qilinishi kerak, tashrif tezlanishi bemorning klinik holatiga ko'ra bo'ladi (eng yaxshisi kasalxonadan chiqqandan keyin 1, 2, 3, 6 va 12 oy davrlarida) [6].

2.2. Ta'rifi [5]:

Infeksion endokardit (IE) – infeksiyon kelib chiqishga ega yallig'lanishi kasalligi bo'lib, asosan yurak klapanlarining, devor oldi endokard va yirik qon tomirlar endoteliysining shikastlanishi bilan tavsiflanadi, a'zolari toksik shikastlash, immunopatologik reaksiyalar rivojlanishi, embolik va boshqa asoratlar bilan sepsis tipida kechadi.

Tasnifnomasi [4-6].

Mikrobiologik natijalarga muvofiq IE ning quyidagi toifalari ajratiladi:

- Qonning musbat ekmalari bo'lgan infeksiyon endokardit. Qo'zg'atuvchilar bo'lib ko'pincha stafilokokklar, streptokokklar va enterokokklar hisoblanadi.
- Infeksiyon endokardit qon ekmalari manfiy bo'lishi ko'pincha antibiotiklar bilan davolanish bilan bog'liq (bunda antibiotiklarni bekor qilish va qaytadan tahlil o'tkazish talab qilinadi), (streptokokklarning ozuqa-defekt varianti; NASEK guruhi gram manfiy tayoqchalar: Haemophilus parainfluenzae, H.aphrophilus, H.paraphrophilus, H.influenzae, Actinobacillus actinomycetemcomitans, Cardiobacterium hominis, Eikenella corrodens, Kingella kingae, K. Denitrificans; Brucella va zamburug'lar).

Infeksiyon endokardit tasnifnomasi [4-6]:

Infeksiya lokalizatsiyasiga, yurak ichi moslamasi (materiali) mavjudligi yoki yo'qligiga ko'ra:

<p>Yurakning chap bo'limlari IE:</p> <ul style="list-style-type: none">➤ nativ klapanlar IE;➤ protezlangan IE:<ul style="list-style-type: none">○ protezlangan erta IE – klapanlarda jarrohlik amaliyotidan keyin 1 yilgacha;○ protezlangan kech IE - klapanlarda jarrohlik amaliyotidan keyin 1 yildan ko'p.
Yurakning o'ng bo'limlari IE
Yurak ichi moslamalari (kardiostimulyator yoki kardioverter-defibrillyator) bilan bog'liq IE.

Orttirish shakliga ko'ra:

<p>Tibbiy muolajalar bilan bog'liq IE:</p> <ul style="list-style-type: none">➤ nozokomial - IE belgilari/simptomlari bemor hospitalizatsiya qilingan vaqtdan 48 soatdan keyin rivojlangan;➤ nozokomial bo'lmagan - IE belgilari/simptomlari bemor hospitalizatsiya qilingan vaqtdan 48 soatdan avval, quyidagi muolajalarni bajargandan keyin rivojlangan;<ul style="list-style-type: none">• uy sharoitida tomir ichi in'eksiyalari, gemodializ• tomir ichiga kimyoviy terapiya – IE rivojlanishigacha 30 kun ichida;

<ul style="list-style-type: none"> • IE rivojlanishigacha 90 kun ichida stasionarga gospitalizatsiya qilinganligi; • doimiy xospisda bo‘lishi yoki uy sharoitida uzoq muddat davolanishi.
IE umumiy orttirilgan – IE simptomlari bemor gospitalizatsiya qilingan vaqtdan 48 soatdan avval rivojlangan va nozokomial IE mezonlariga muvofiq kelmaydi.
Giyohvand moddalarni tomir ichiga kiritish bilan shartlangan IE.

Kechishi bo‘yicha klinik tasnifnomasi [4-6]:

O‘tkir kechishi – davolash boshlangandan 2 oygacha;
O‘tkir osti kechishi – 2 oydan 6 oygacha;
Remissiya – massiv antibiotikli terapiya o‘tkazishda paydo bo‘lishi mumkin.
Residiv – boshlang‘ich epizoddan 6 oydan keyin paydo bo‘lgan bitta mikroorganizm bilan chaqirilgan IE ning takroriy epizodlari
Surunkali kechishi – 6 oydan uzoq vaqt.

Faol IE:

Turg‘un isitma va musbat gemoekmali;
Faol IE ning morfologik belgilari intraoperatsion tasdiqlangan;
Bemor hali ham antibakterial terapiyaga muhtoj;
IE faolligining gistologik tasdig‘i.

Qaytar IE:

IE residivi – boshlang‘ich epizoddan 6 oydan keyin paydo bo‘lgan bitta mikroorganizm bilan chaqirilgan IE ning takroriy epizodlari.
Takroriy IE (reinfeksiya) - boshlang‘ich epizoddan 6 oydan keyin paydo bo‘lgan bitta mikroorganizm yoki boshqa qo‘zg‘atuvchi bilan chaqirilgan IE ning takroriy epizodlari.

3. Usullar, yondashuvlar va tashxislash jarayonlari [4]

Tablitsa 3. Diagnostika infeksiyano endokardita

Usul	Tavsiya	Sinf	Daraja	Manba
<i>Klinik mezonlar</i>	Duke mezonlaridan foydalangan holda tashxis qo‘yish	I	C	https://academic.oup.com/eurheartj/article/36/44/3075/2293384?login=false.
<i>Transtorakal exokardiografiya (TTE)</i>	O‘smalar, klapan zararlanishi, asoratlarni aniqlash uchun asosiy tasvirlash usuli	I	C	

Transezofageal exokardiografiya (TEE)	Transplantatli klapanlar bor bemorlarda infeksiyon endokarditni aniqlash uchun	I	C
Boshqa tasvirlash usullari (KT, MRT)	Paravalvulyar abscesslar, fistulalar kabi asoratlardan shubhalanganda	IIa	C
Qon kulturalari	Antibiotikoterapiya boshlanishidan oldin kamida 3 ta qon namunasi olish	I	B
Serologik tekshiruvlar	Odatiy bo'lmagan mikroorganizmlar tomonidan qo'zg'atilgan infeksiyalarni tashxislash uchun	IIa	C
O'smalardan biopsiya	Manfiy qon kulturalari va antibiotikoterapiyaning samarasizligi hollarida ko'rsatiladi	IIb	C

3.1. Diagnostik mezonlar [4]:

Shikoyatlar:

- isitma; terlash; holsizlik; qusish; diareya; oyoqlar shishi; hansirash;
- ong buzilishi, AB pasayishi

Anamnez:

Agarda isitma quyidagilar bilan shartlangan bo'lsa IE ga gumon qilish kerak:

- yurak ichi protez materiali (masalan, protezlangan klapan, kardiostimulyator, implantatsiya qilingan defibrillyator, jarrohlik yamog'i/o'tkazuvchi);
- anamnezda o'tkazilgan IE;
- o'tkazilgan yurak klapan kasalligi yoki TYuN;
- IE ga moyil boshqa holatlar (masalan, immunotanqislik holatlari, dorilarni tomir ichiga yuborish);
- moyillik va bakteriemiya bilan bog'liq yaqinda o'tkazilgan aralashuvlar;
- dimlangan yurak yetishmovchiligi;
- o'tkazuvchanlikning yangi buzilishi;
- IE ning tipik kauzativ qo'zg'atuvchilari bilan birga bo'lgan musbat qon ekmalari yoki surunkali Ku-isitma qo'zg'atuvchilarining musbat serologik natijalari (mikrobiologik ma'lumotlar yurak ko'rinishlaridan oldin kelishi mumkin);
- qon tomir yoki immunologik ko'rinishlar: embolik hodisalar, Rot dog'lari, nuqtali qon talashishlar, Janeway shikastlanishlari, Osler tugunchalari;
- fokal yoki nospesifik nevrologik simptomlar va belgilar;
- o'pka emboliyasi/infiltratsiyasi belgilari (o'ng tomonlama IE);
- noaniq etiologiyali periferik abscesslar (buyrak, qora taloq, serebral, vertebral).

Fizikal tekshiruv:

- teri qoplamlarining rangparligi;

- petexial toshma elementlari bo‘lishi ehtimoli;
- kuchsiz to‘lish pulsi;
- yurak auskultatsiyasida regurgitatsiyaning yangi shovqini;
- perkussiyada yurak nisbiy to‘mtoqligi chegaralarining kengayishi;
- qon tomir yoki immunologik ko‘rinishlar: embolik hodisalar, Rot dog‘lari (ko‘z pardasidagi mayda qon talashishlar), nuqtali qon talashishlar, Janeway dog‘lari (qo‘l va oyoq panjalarida 1-4 mm diametrli og‘riqsiz gemorragik dog‘lar), Osler tugunchalari (palpatsiyada og‘riqli no‘hatdek qizilsimon zo‘riquvchan o‘smalar, qo‘l panjalari, barmoqlar, oyoq osti terisida va teri osti kletchatkasida joylashgan); mikro-qon tomirlar shikastlanishi yuqoriligi to‘g‘risida dalolat beruvchi Rumpel–Leede–Konchalovskiy musbat sinamasi;
- fokal yoki nospesifik nevrologik simptomlar va belgilar;
- noaniq etiologiyali periferik absesslar (buyrak, qora taloq, serebral, vertebral).

IE kasallikning ichki a‘zolar immun shikastlanishi bilan shartlangan boshqa ko‘rinishlari, tromboemboliyalar, shuningdek, ichki a‘zolarida septik o‘choqlar rivojlanishi bilan ham kuzatilishi mumkin. Xususan:

- nevrologik asoratlar (miya qon tomirlari tromboemboliyasi, miya ichi gematomalari, miya absessi, meningit oqibatida miya infarkti) – 40-50% bemorda rivojlanadi;
- trikuspidal klapan shikastlanishida (tahminan 75% bemorda) aniqlanadigan o‘pka arteriyasi tromboemboliyasi (O‘ATE) infarkt pnevmoniyasi va qon tuflash epizodlari bilan birga;
- qora taloq tromboemboliyasi va septik shikastlanishi;
- buyrak yetishmovchiligi (5% bemorlar);
- qo‘l va oyoq panjalari mayda bo‘g‘imlarining o‘tkir asimmetrik artriti;
- embolik sindrom (35% bemor).

3.2 Laborator tekshiruvlar: [4]

IE li barcha bemorlarda quyidagilarni aniqlash tavsiya etiladi:

- | |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <ul style="list-style-type: none"> • Anemiya darajasini aniqlash uchun umumiy gemoglobin va eritrotsitlar miqdori; • Leykotsitoz/leykopeniyani aniqlash uchun leykotsitlar miqdori, yetilmagan shaklli leykotsitlar sonini aniqlash uchun leykotsitar formula; • EChT darajasi; • SRO konsentratsiyasi; • Prokalsitonin darajasi |
| <ul style="list-style-type: none"> • Shikastlangan a‘zolar disfunktsiyasi markerlari - NT-proBNP darajasi; • Qondagi umumiy bilirubin, ALT, AST darajasi; • Qondagi kreatinin darajasi; • Kalava filtratsiyasi tezligini hisoblab chiqish; • Glyukoza darajasi; • Qondagi kaliy va natriy |

- Peshobning umumiy tahlili: proteinuriyani, gematuriyani, lekotsituriyani aniqlash.

Biroq, sepsis og‘irligi yuqorida ko‘rsatilgan laborator ko‘rsatkichlar bilan namoyon bo‘lishi mumkinligiga qaramay, ulardan hech biri IE uchun diagnostik ko‘rsatkich bo‘lib hisoblanmaydi [19]. Bundan tashqari, aniqlangan laborator topilmalar, jumladan, bilirubin, kreatinin va trombositlar soni (SOFA shkalasi — a‘zolar yetishmovchiligini ketma-ket baholash), shuningdek, kreatinin klirensi (EuroSCORE II — Yevropa jarrohlik yurak xavfini baholash tizimi) IE da xavf stratifikatsiyasining jarrohlik tizimlarida qo‘llaniladi. Va nihoyat, infeksiyon asos klinik gumon qilinganda, prokalsitonin va leykotsitlar darajasi normal, SRO va/yoki EChT ancha ortgan holda yallig‘lanish mediatorlari va immun komplekslarining ortish xususiyatlari IE diagnozini qo‘llashi mumkin, lekin tasdiqlamaydi [20].

3.3. Instrumental tekshiruvlar [4, 5]:

Elektrokardiografiya
Transtorakal exokardiografiya
Qizilo‘ngach orqali exokardiografiya
MSKT, MRT
¹⁸ F-ftorodezoksiglyukoza (FDG)-pozitron emission tomografiya (PET)
Kompyuterli tomografiya (KT)
Funksional vizualizatsiyaning boshqa uslublari [4].

3.3.1 Exokardiografiya

ExoKG, QO‘ExoKG ham, transtorakal ExoKG (TExoKG) ham — IE diagnostikasida tanlov uslubi hisoblanadi. U bemorlarni yuritishda va ular holatini nazorat qilishda asosiy o‘rinni egallaydi [4].

TExoKG ga ko‘rsatmalar diagnoz qo‘yish va IE ga gumon qilingan bemorlarni nazorat qilish uchun beriladi.

A. Diagnostikasi

Tavsiya	Sinf	Daraja	Manba
TExoKG IE ga gumon qilinganda birinchi tanlov vizualizatsiya uslubi sifatida tavsiya etiladi. [4]	EOK I	B	https://cardiocenter.uz/docs
QO‘ExoKG IE ga klinik gumon qilingan barcha bemorlarga va negativ yoki ahborotsiz TExoKG da tavsiya etiladi. [4]	EOK I	B	https://cardiocenter.uz/docs
QO‘ExoKG IE ga klinik gumon qilingan barcha bemorlarga klapan protezi yoki yurak ichi moslamasi bo‘lganda tavsiya etiladi. [4]	EOK I	B	https://cardiocenter.uz/docs
Dastlab manfiy natijalar chiqqanda va IE ga yuqori klinik gumon darajasi saqlanganda takroriy TExoKG	EOK I	C	https://cardiocenter.uz/docs

va/yoki QO‘ExoKG 5-7 kun ichida o‘tkazilishi tavsiya etiladi.			
Agarda S. aureus bakteriemiya mavjud bo‘lsa, exokardiografiyani o‘tkazish ko‘rib chiqilishi mumkin. [4]	EOK IIa	B	https://cardiocenter.uz/docs
IE ga gumon qilingan bemorlarda hatto TExoKG musbat bo‘lgan hollarda ham bitta o‘ng nativ klapan IE istisno qilinganda, sifatli tekshiruvda va ExoKG natijalari qarama-qarshi bo‘lmaganda QO‘ExoKG ni ko‘rib chiqish lozim.	EOK IIa	C	https://cardiocenter.uz/docs

B. Medikamentoz terapiya fonida kuzatuv

Tavsiya	Sinf	Daraja	Manba
Agarda IE ning yangi asorati (yangi shovqin, emboliya, saqlanib qolgan isitma, YuE, abscess, artioventrikulyar qamal) gumon qilinsa, takroriy TExoKG va/yoki QO‘ExoKG ni iloji boricha tezroq o‘tkazish tavsiya etiladi. [4]	EOK I	B	https://cardiocenter.uz/docs
Yangi subklinik asoratlardan va vegetatsiyalar ustidan nazorat qilish maqsadida kuzatuv jarayonida takroriy TExoKG va/yoki QO‘ExoKG o‘tkazish ko‘rib chiqilishi mumkin. ExoKG vaqti va usuli (transtorakal, qizilo‘ngach orqali) dastlabki natijalarga, mikroorganizm tipiga va terapiyaga dastlabki javobga bog‘liq. [4]	EOK IIa	B	https://cardiocenter.uz/docs

V. Intraoperatsion ExoKG


Tavsiya	Sinf	Daraja	Manba
Intraoperatsion ExoKG jarrohlikni talab etuvchi barcha hollarda tavsiya etiladi. [4]	EOK I	B	https://cardiocenter.uz/docs

G. Terapiya tugagandan keyin

Tavsiya	Sinf	Daraja	Manba
ExoKG antibiotiklar bilan terapiya tugagandan keyin klapanlar va yurak morfologiyasini, yurak funksiyasini aniqlash uchun tavsiya etiladi.	EOK I	C	https://cardiocenter.uz/docs

IE ga gumon qilinganda TExoKG va QO‘ExoKG qo‘llashning algoritmi 1-rasmda taqdim etilgan.

1-rasm. IE ga gumon qilinganda ExoKG ga ko‘rsatmalar.



Izoh: Izolyatsiyalangan o'ng tomonli nativ klapanlar endokarditida TExoKG sifatli bo'lib, ExoKG natijalari qarama-qarshi bo'lmaganda QO'ExoKG o'tkazish shart emas.

Qisqartmalar: IE – infeksion endokardit, QO'ExoKG – qizilo'ngach orqali exokardiografiya, TExoKG - transtorakal exokardiografiya.

IE ning katta mezonlari bo'lib ExoKG ning uchta belgisi hisoblanadi [2, 4] (4-jadval):

- ✓ Vegetatsiyalar
- ✓ absess yoki psevdanevrizma
- ✓ protezlangan klapan disfunktsiyasi

4-jadval. Anatomik va exokardiografik ta'riflar

	Jarrohlik/autopsiya	Exokardiografiya
Vegetatsiya	Endokard elementiga yoki implantatsiya qilingan yurak ichi materialiga yopishgan infeksiyalangan hajmli o'sma.	Klapanda yoki endokardning boshqa tuzilmalarida yoki implantatsiya qilingan yurak ichi materialida harakatli yoki harakatsiz hajmli o'sma.
Absess	Yurak-qon tomir teshigi	Qalinlashgan nogomogen

	bilan bog‘liq bo‘lmagan, nekrozli va tarkibida yiring bo‘lgan perivalvulyar bo‘shliq.	perivalvulyar soha, exonegativ yoki exopozitiv.
Psevdoanevrizma	Yurak-qon tomir teshigi bilan qo‘shilgan perivalvulyar bo‘shliq.	Puls urib turuvchi perivalvulyar exonegativ bo‘shliq, rangli doppler bo‘yicha ko‘rinadi.
Perforatsiya	Endokard to‘qimasi butunligining buzilishi.	Endokard to‘qimasi butunligining buzilishi, rangli doppler bo‘yicha ko‘rinadi.
Fistula	Perforatsiya orqali ikkita qo‘shni bo‘shliq o‘rtasidagi yo‘l.	Perforatsiya orqali ikkita qo‘shni bo‘shliq o‘rtasidagi yo‘l, rangli doppler bo‘yicha ko‘rinadi.
Klapan anevrizmasi	Klapan to‘qimasining qopsimon bo‘rtib turishi.	Klapan to‘qimasida qopsimon bo‘rtma.
Klapan protezining ishlamasligi	Protezning ishlamasligi	TExoKG va/yoki QO‘ExoKG bo‘yicha paravalvulyar regurgitatsiya, protez harakati bilan yoki harakatisiz.

3.3.2. Multispiral kompyuterli tomografiya

Koronar angiografiya (agar ko‘rsatilgan bo‘lsa) vaqtida vegetatsiyalar va/yoki gemodinamik dekompensatsiya bilan bo‘lgan potensial emboliya xavfi ba’zi endokarditli bemorlarda alternativ uslub sifatida koronar arteriyalarning MSKT-angiografiyasini qo‘llash taklifiga olib keldi [4].

<p>➤ Abscesslar/psevdoanevrizmalarni aniqlash uchun MSKT QO‘ExoKG bilan bir xil diagnostik qiymatga ega, perivalvulyar tarqalish, jumladan, psevdoanevrizma anatomiyasi, abscesslar va fistulalar to‘g‘risidagi ahborot munosabatida esa yuqoriroq qiymatga egadir [4].</p>
<p>➤ Aorta IE da KT aortal klapan o‘lchamlari, anatomiyasi va aortal klapan, aorta piyozchasi va yuqoriga chiquvchi bo‘limning kalsifikatsiyasini aniqlash uchun qo‘shimcha foydalidir, bu jarrohlik yo‘li bilan davolashni rejalashtirish uchun zarur. Yurak o‘ng bo‘limi va o‘pka arteriyasi klapani endokarditida KT o‘pkaning yondosh patologiyasini, jumladan, abscesslar va infarktlarni aniqlashi mumkin.</p>
<p>➤ Tizimli arterial xavzani tekshirishda MSKT angiografiya tez va sifatli natija beradi. Izchil multitekislik 3D kontrast-kuchaytirilgan angiografik rekonstruksiya qon tomirlarni kartalashga, IE ning qon tomir asoratlarini identifikatsiya qilishga va tavsiflashga imkon beradi [4].</p>

3.3.3. Magnit-rezonans vizualizatsiya

Magnit-rezonans tomografiya (MRT) ning yuqori sezgirligini hisobga olgan holda uning yordamida IE ning miya asoratlarini aniqlash ehtimoli ortadi.

MRT ni muntazam o'tkazish shuningdek bosh miya jalb qilingan bemorlarda miya simptomatikasi yo'qligida IE diagnostikasiga ulush qo'shadi, chunki u Duke tasnifnomasi bo'yicha kichik mezonlarga kiradi [4].

<p>➤ Bosh miya MRT IE li bemorlarda asosan miya simptomatikasiga ega o'zgarishlarni ko'rsatadi [4]. Asosiy shikastlanishni, masalan, insultni, tranzitor ishemik atakani va ensefalopatiyani aniqlash uchun MRT ning sezgirliги KT ga nisbatan yuqori.</p>
<p>➤ MRT shuningdek klinik namoyon bo'lmagan qo'shimcha serebral shikastlanishlarni aniqlashda yordam berishi mumkin.</p>
<p>➤ Bosh miya MRT agarda bitta kichik Duke-mezoni mavjud bo'lsa, ba'zida nevrologik simptomatikali bemorlarda IE diagnoziga ta'sir etmaydi, biroq MRT davolash strategiyasiga, xususan, jarrohlik aralashuvi muddatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin [4].</p>

3.3.4. Yadroli vizualizatsiya uslublari

Oddiy yadroli (masalan, bir fotonli emission KT (BFEKT/KT)) va pozitron-emission tomografiya (ya'ni PET/KT) uchun gibrid moslama kiritilishi bilan molekular yadroli texnika diagnostik murakkabliklari bor IE ga gumon qilingan bemorlar uchun muhim qo'shimcha uslub sifatida rivojlanmoqda. BFEKT/KT autologik radio nishonli leykotsitlarni (In-oksin yoki Tc-geksametilpropilenaminoksim) qo'llashga asoslangan, ular kechroq va ertaroq vizualizatsiyalarga nisbatan vaqtga bog'liq rejimda to'planadi, PET/KT esa odatda ^{18}F -FDG tayinlangandan keyin bir fotonli vaqt nuqtasida (ko'pincha 1 soat) bajariladi, u infeksiya o'chog'ida to'planadigan in vivo faollashtirilgan leykotsitlar, monotsitlar-makrofaglar va CD4^+ T-limfotsitlar bilan faol inkorporatsiyalanadi.

Agarda yaqin orada jarrohlik aralashuvi amalga oshirilgan bo'lsa, ^{18}F -FDG PET/KT natijalarini ehtiyotlik bilan interpretatsiya qilish lozim, chunki amaliyotdan keyingi yallig'lanish javobi yaqin oradagi amaliyotdan keyingi davrda ^{18}F -FDG ni nospesifik qamrab olinishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, bir qator kasallik holatlari markerni qamrab olinishining lokal ortishi namunasiga taqlid qilishi ehtimoli bor, masalan IE da quyidagicha bo'lishi mumkin: faol tromboz, bo'sh aterosklerotik pilakchalar, vaskulitlar, yurakning birlamchi o'smalari, noyurak o'smalarning yurakka metastazalari, jarrohlik amaliyotidan keyingi yallig'lanish va begona jismlarga javob [4].

^{18}F -FDG PET/KT ga nisbatan BFEKT/KT IE ni va infeksiya fokuslarini aniqlash uchun ko'proq spesifik hisoblanadi va kuchaygan spesifiklik talab qilinadigan barcha holatlarda ushbu uslubni afzal ko'rish kerak [4]. Radio nishonli leykotsitlar bilan o'tkaziladigan ssintigrafiyaning kamchiliklari – qonni radiofarmakologik ishlovdan o'tkazish, muolaja davomiyligi PET/KT ga nisbatan uzoq, shuningdek, PET/KT bilan taqqoslaganda protonlarni samarali aniqlash maydoni o'lchamlari kamroqdir.

^{18}F -FDG qo'shimcha afzalligi IE aniqlangan bemorlarda antibakterial terapiyaga javobni nazorat qilinishidan iborat. Lekin buni umumiy tavsiya qilish uchun hozircha ma'lumotlar yetarli emas.

3.4. Mikrobiologik diagnostika: [4, 5]

- IE li barcha bemorlarga qo'zg'atuvchini identifikatsiya qilish va uning antibiotiklarga sezgirligini aniqlash uchun venoz qonda uch marta mikrobiologik tekshiruv o'tkazish tavsiya etiladi [4];
- IE li barcha bemorlarda ABT tayinlanishidan oldin, tana haroratining cho'qqiga chiqishini kutmasdan mikrobiologik tekshiruv uchun sterillikka qon namunalarini olish tavsiya qilinadi.

3.4.1. Musbat o'suvchi endokardit

IE da bakteriemiya deyarli doimo ikkita muhim ahamiyatga ega:

- 1) qon olish uchun tana haroratining cho'qqiga chiqishini kutib turish uchun asos yo'q
- 2) deyarli barcha ekmalar musbat bo'ladi.

Natija sifatida bir martalik ekmani IE diagnozini qo'yish uchun e'tiborlik bilan baholash lozim. Mikrobiologik laboratoriyani IE ga klinik gumon to'g'risida ogohlantirish kerak.

Mikroorganizm identifikatsiya qilingandan keyin, 48-72 soatdan keyin davolash samaradorligini tekshirish uchun qon ekmasini takrorlash zarur. Mikroorganizm ajratilgandan keyin birinchi identifikatsiya Gram bo'yicha o'tkazilishi kerak. To'liq identifikatsiya ko'pincha 2 kungacha vaqtda davom etadi, biroq g'ayrioddiy florada uzoqroq vaqtni egallashi mumkin.

3.4.2. Manfiy o'suvchi endokardit

Manfiy o'suvchi endokardit (ManfO'E) odatdagi mikrobiologiya uslublari bilan sabab bo'lgan mikroorganizm aniqlanmagan IE ga kiradi. U IE ning 31% gacha hollarida uchraydi va og'ir diagnostik hamda terapevtik murakkabliklarni tug'diradi.

ManfO'E odatda oldingi antibiotiklar bilan davolash oqibatida paydo bo'ladi, bunday vaziyatda antibiotiklarni bekor qilish zaruratini ko'rsatadi va qon ekmalarini qaytadan tekshirishni talab etadi.

ManfO'E zamburug'lar yoki atipik bakteriyalar, masalan, hujayra ichi bakteriyalari bilan chaqirilishi mumkin. Ularni ajratish uchun maxsus muhit talab etiladi, o'sishi esa nisbatan sekin bo'ladi.

Mahalliy epidemiologik vaziyatga muvofiq *Coxiella burnetii*, *Bartonella* spp., *Aspergillus* spp., *Mycoplasma pneumoniae*, *Brucella* spp., *Aspergillus* spp., *Legionella pneumophila* ga serologik sinama o'tkazish lozim, undan keyin qonda *Tropheryma whipplei*, *Bartonella* spp. zamburug'lar (*Candida* spp., *Aspergillus* spp.) ga polimeraz zanjirli reaksiya (PZR) bajariladi [4] (5-jadval).

5-jadval. Ekmanegativ IE ning kam uchraydigan etiologik omillarini tekshirish


Patogen	Diagnostik muolaja
<i>Brucella</i> spp.	Qon ekmasi, serologiya; ekish, immunogistologiya va jarrohlik materialining PZR.
<i>Soxiella burnetii</i>	Cerologiya (IgG fazasi I >1:800), to'qimani ekish, immunogistologiya, jarrohlik materialining PZR.
<i>Bartonella</i> spp.	Qon ekmasi, serologiya; ekish, immunogistologiya va jarrohlik materialining PZR.

<i>Tropheryma whipplei</i>	Gistologiya va jarrohlik materialining PZR.
<i>Mycoplasma spp.</i>	Serologiya; ekish, immunogistologiya va jarrohlik materialining PZR.
<i>Legionella spp.</i>	Qon ekmasi, serologiya; ekish, immunogistologiya va jarrohlik materialining PZR.
Gribki	Qon ekmasi, serologiya; ekish, jarrohlik materialining PZR.

Qisqartmalar: Ig — immunoglobulin, PZR — polimeraza zanjirli reaksiya.

Barcha mikrobiologik uslublar natijalari manfiy bo'lganda, noinfekcion endokardit diaqnozini ko'rib chiqish lozim va antinuklear antitanachalar yoki antifosfolipid sindromi (antikardiolipin antitanachalar (immunoglobulin (Ig)G) va anti-v2-glikoprotein 1 antitanachalar (IgG i IgM)) ni aniqlash uslublarini qo'llash kerak. Barcha boshqa tekshiruvlar manfiy bo'lganda, bemorda esa klapaning cho'chqadan olingan protezi o'rnatilgan va allergik javob markerlari ijobiy bo'lsa, cho'chqaga qarshi antitanachalarni aniqlash lozim [4].

2-rasm. KPIE va NKIE da mikrobiologik diaqnostika



Qisqartmalar: ENIE — ekmanegativ endokardit, IE — infeksiyon endokardit, PZR — polimeraza zanjirli reaksiya.

Infeksiyon endokarditning gistologik diagnozi

Olib tashlangan klapani yoki embollar fragmentlarini tekshirish IE diagnostikasining oltin standarti bo'lib qolaveradi. Jarrohlik amaliyoti vatida kesib olingan yurak klapanlari to'qimalarining barcha namunalari fiksatsiyalovchi yoki ozuqa muhiti bo'lmagan steril konteynerlarga yig'ilishi lozim. Mikroorganizmni identifikatsiya qilishning optimal imkoniyatini yaratish uchun namuna butunligicha mikrobiologik laboratoriyaga yetkazilishi kerak.

6-jadval. Duke ning qo'shimcha diagnostik mezonlari [4]

Katta mezonlar
Mikrobiologik tekshiruvning musbat natijalari
<ul style="list-style-type: none"> ➤ Qonning ikkitadan ko'p bo'lgan namunasida tipik mikroorganizmlarni (<i>Streptococcus gr. viridans</i>, <i>Streptococcus bovis</i>, <i>Staphylococcus aureus</i>, <i>Enterococcus</i> spp.) ajratish. ➤ 12 soat interval bilan olingan 2 tadan ko'p qon namunasida yoki kamida 1 soat interval bilan olingan 3 ta qon namunasida birinchi va oxirgi namunalarda qo'zg'atuvchi ajratilishi sharti bilan notipik mikroorganizmlarni ajratish ➤ <i>Coxiella burnetii</i> ni bir marta ajratish yoki qonning serologik tahlilida ushbu qo'zg'atuvchiga IgG ni >1:1800 titrda aniqlash.
Vizualizatsiya uslublarining musbat natijalari
<ul style="list-style-type: none"> ➤ Shikastlanishni exokardiografik aniqlash: <ul style="list-style-type: none"> • Vegetatsiya • Abscess • Psevdoanevrizma • Yurak ichi fistulasi • Klapan perforatsiyasi yoki anevrizma • Protezlangan klapan shikastlanishi. ➤ Radioizotop tekshirish uslublarini o'tkazganda tashxis qilingan protezlangan klapan funksiyasining buzilishi ➤ Kompyuterli tomografiya o'tkazganda tashxis qilingan klapan oldi shikastlanishlari.

Kichik mezonlar
<ul style="list-style-type: none"> ➤ Shikastlanishga moyillik chaqiradigan omillar yoki giyohvand moddalarning tomir ichiga kiritilishi ➤ Isitma >38°S.

<ul style="list-style-type: none"> ➤ Qon tomir ko‘rinishlari: <ul style="list-style-type: none"> • arterial emboliyalar • infarkt-pnevmoniya • infeksiyon anevrizmalar • miya qutisi ichi va ko‘z ichi qon ketishlar • Djenuya jarohatlari
<ul style="list-style-type: none"> ➤ Immunologik ko‘rinishlar: <ul style="list-style-type: none"> • glomerulonefrit • Osler tugunchalari • Rot dog‘lari • revmatoid omil
<ul style="list-style-type: none"> ➤ Katta mezonlarga kirmaydigan qon mikroorganizmlarini ajratish

Yuqorida bayon etilgan mezonlar (katta va kichik) yig‘indisi bo‘yicha Duke ning modifikatsiyalangan mezonlarini qo‘llagan holda IE diagnozi qo‘yiladi (6-jadvalda taqdim qilingan) [3-5].


7-jadval. Infeksiyon endokardit diagnostikasi uchun Duke modifikatsiyalangan mezonlari (Li et al. dan moslashtirilgan)

Aniqlangan IE
<p>Patologoanatomik mezonlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> ➤ Ekmada yoki vegetatsiyalarning gistologik tahlilida, emboliya bo‘lgan vegetatsiyada yoki yurak ichi absessi namunasida aniqlangan mikroorganizmlar ➤ Gistologik tekshiruv natijasi bilan tasdiqlangan faol endokarditni ko‘rsatuvchi patologik o‘zgarishlar, vegetatsiyalar yoki yurak ichi absessi: <p>Klinik mezonlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> ➤ 2 ta katta ➤ 1 ta katta va 3 ta kichik ➤ 5 ta kichik mezonlar
Ehtimol qilingan IE
<ul style="list-style-type: none"> ➤ 1 ta katta va 1 ta kichik mezon ➤ 3 ta kichik mezon
IE istisno qilinadi
<ul style="list-style-type: none"> ➤ Aniq alternativ diagnoz yoki IE ga gumon qilingan simptomlarning antibakterial terapiya fonida 4 va undan kam kunda yo‘qolishi yoki ➤ Jarrohlik amaliyotda yoki murda yorishda 4 va undan kam antibiotikli terapiyada IE ning patologik dalilining yo‘qligi yoki ➤ Yuqorida ko‘rsatilganidek ehtimol qilingan IE mezonlarini qoniqtirmaydi.

Diagnoz faqatgina «ehtimol qilingan» yoki xatto «istisno» qilingan bo‘lsa ham, klinik gumon yuqori bo‘lganda, ExoKG, qon ekmasini, shuningdek, boshqa vizualizatsiya uslublarini (yurak KT, PET/BFEKT, bosh miya MRT) takroran o‘tkazish lozim.

Ushbu uslublar natijalari 3-rasmda taqdim qilingan ESC ning modifikatsiyalangan diagnostik algoritmiga muvofiq interpretatsiya qilinishi kerak.

3-rasm. Yevropa kardiologlari jamiyatining IE diagnostikasi bo'yicha algoritmi (2015)



Izoh:

a — bosh miya MRT ni, butun tana KT ni va/yoki PET/KT ni kiritish mumkin,

b — «Infeksion endokardit diagnostikasi uchun Duke modifikatsiyalangan mezonlari (Li et al. dan moslashtirilgan)» jadvaliga qarang.

Qisqartmalar: FDG — ftordezoksiglyukoza, PET — pozitron-emission tomografiya, BFEKT — bir fotonli emissionnaya kompyuterli tomografiya.

6. Differential diaqnoz va qo‘shimcha tekshiruvlarning asoslanganligi [3]

Differential diaqnoz va qo‘shimcha tekshiruvlarning asoslanganligi 8-jadvalda taqdim qilingan.

8-jadval. IE ning differential diagnostikasi

Diagnoz	Differential diagnostika uchun asos	Tekshiruvlar	Diagnozni istisno qilish mezonlari
---------	-------------------------------------	--------------	------------------------------------

Noaniq etiologiyali isitma (NEI)	NEI uchun 3 hafta davomida 4 (yoki undan ko'p) marta haroratning 38,3°S dan yuqoriga ko'tarilishi tavsifli. Bunda quyidagilarni istisno qilish kerak:		
	Infekzion kasalliklar	Infeksiyalar uchun PZR diagnostikasi: ➤ Virusli ➤ Bakterial	Past titrlar va dinamikada o'smaslik
	Tizimli vaskulitlar (Takayasu kasalligi – aorta va aortal klapan shikastlanishi)	➤ Kontrastli angiografiya ➤ Qon tomirlar UTDG;	➤ Qon tomirlar obliteratsiyasining yo'qligi ➤ Qon tomirlar torayishining yo'qligi ➤ Qon oqimi tezligi o'zgarmagan;
	Onkologik kasalliklar	➤ ¹⁸ F -FDG PET/KT yoki ➤ BFEKT/KT radio-nishonli leykotsitlar bilan birga Yurak KT	A'zo va to'qimalarda nishonlangan leykotsitlarning to'planishi belgilari yo'qligi;
	Tuberkulyoz	➤ O'pkaning rentgenologik tekshiruvi	O'pkada infiltrativ o'zgarishlarning yo'qligi
➤ Patologik material (balg'am, xalqumdan shilliq, traxeya, bronxlar yuvilgan suvi) ni tekshirish. ➤ Tuberkulinni provokatsiya qiluvchi sinamalar.		➤ Tuberkulyoz mikobakteriyalarining yo'qligi; ➤ Manfiy natijalar olinishi	

O'tkir revmatik isitma	Isitma va yurak klapanalari nuqsonlarini shakllantirish	Antistreptokokk antitanachalari (antistreptolizin-O, antistreptokinaza, antistreptogialuronidaza)	Antistreptokokk antitanachalari (antistreptolizin-O, antistreptokinaza, antistreptogialuronidaza) ning past titrlari va/yoki dinamikada o'sishning yo'qligi;
-------------------------------	---------------------------------------------------------	---------------------------------------------------------------------------------------------------	--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

Tizimli volchanka	qizil	<ul style="list-style-type: none"> ➤ Isitma ➤ Tizimlilik ➤ Yurakning klapan tuzilmalari-ning shikastlanishi ehtimoli 	Antinuklear antitanachalar (RF, DNK ga antitanachalar, yadroli antigenlar, gistonlarga ekstraksiya qilinuvchi antitanachalar)	ANA ning past titrlari va titrlarning dinamikada o'smasligi
--------------------------	--------------	-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-------------------------------------------------------------

Umuman olganda, ExoKG (QO'ExoKG, ExoKG), qonning musbat ekmalari va klinik belgilar IE diagnozi uchun asos bo'lib hisoblanadi. Qon ekmasi manfiy bo'lganda boshqa mikrobiologik uslublar kerak bo'ladi. Duke mezonlarining sezgirligi yangi vizualizatsiya usublari (MRT, KT, PET/ KT) bilan yaxshilanishi mumkin, ExoKG natijalari manfiy yoki gumonli bo'lganda ular embolik hodisalarni va yurakning jalb qilinishini tashxis qilishga imkon beradi. Ushbu mezonlar foydalidir, biroq ular «Endokardit jamoasi» ning klinik qarori o'rnini egallay olmaydi [5].

3.5. Yuqori xavf populyatsiyalari

IE ning eng yuqori xavfiga ega bemorlarni uchta toifaga bo'lish mumkin:

